

**DIABETIK NEFROPATIYADA ERTA DIAGNOSTIKA VA ZAMONAVIY  
DAVOLASH YONDASHUVLARI**

**Sunnatullayeva Madina Zokir qizi**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Endokrinologiya kafedrası 1-kurs klinik ordinator

[madinasunnatullayeva649@gmail.com](mailto:madinasunnatullayeva649@gmail.com)

**Ergasheva Iroda Sodiq qizi**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Endokrinologiya kafedrası 1-kurs klinik ordinator

[irodaergasheva980@gmail.com](mailto:irodaergasheva980@gmail.com)

**Abduxalilova Aziza Adhamovna**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Endokrinologiya kafedrası 1-kurs klinik ordinator

[azizaabduxalilova45@gmail.com](mailto:azizaabduxalilova45@gmail.com)

**Annotatsiya:** Diabetik nefropatiya qandli diabetning eng og‘ir va prognoz jihatdan noqulay asoratlaridan biri bo‘lib, buyraklarning glomerulyar apparati va tomir tizimining asta-sekin zararlanishi bilan tavsiflanadi. Kasallik uzoq muddatli giperglikemiya fonida rivojlanib, mikroalbuminuriya, proteinuriya va buyrak funksiyasining pasayishi bilan kechadi. Ushbu tezisda diabetik nefropatiyaning rivojlanish mexanizmlari, erta diagnostika mezonlari va zamonaviy profilaktik yondashuvlar tahlil qilinadi. O‘z vaqtida aniqlash va glyukemik hamda arterial bosimni samarali nazorat qilish kasallikning rivojlanishini sekinlashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Diabetik nefropatiya, qandli diabet, buyrak shikastlanishi, mikroalbuminuriya, proteinuriya, giperglikemiya, glomerulyar filtratsiya, profilaktika.

Qandli diabet dunyo bo‘yicha surunkali kasalliklar orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallab, uning asoratlari bemorlar sog‘lig‘i va hayot sifatiga jiddiy ta‘sir

ko'rsatadi. Ushbu asoratlarda ichida diabetik nefropatiya eng og'ir va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan holatlardan biri hisoblanadi. Diabetik nefropatiya buyraklarning glomerulyar tuzilmalari va mikrotsirkulyator tizimining zararlanishi natijasida rivojlanib, surunkali buyrak yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Uzoq muddatli giperglikemiya, arterial gipertenziya va metabolik buzilishlar buyrak to'qimalarida strukturaviy va funksional o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Kasallikning dastlabki bosqichlari ko'pincha klinik belgilarisiz kechib, faqat mikroalbuminuriya orqali aniqlanadi. Shu sababli diabetik nefropatiyani erta tashxislash va profilaktika qilish masalalari zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. O'tkazilgan tahlillar natijasida qandli diabet bilan og'irgan bemorlarning ma'lum qismida diabetik nefropatiyaning turli bosqichlari aniqlandi. Dastlabki bosqichlarda mikroalbuminuriya asosiy laborator belgi sifatida kuzatildi, bu esa buyrak zararlanishining erta bosqichini ko'rsatadi. Kasallik davomiyligi uzoq bo'lgan va glyukemik nazorati yetarli bo'lmagan bemorlarda proteinuriya va glomerulyar filtratsiya tezligining pasayishi ko'proq qayd etildi. Arterial bosimi yuqori bo'lgan bemorlarda nefropatiya belgilari tezroq rivojlanishi aniqlanib, buyrak funksional ko'rsatkichlarining yomonlashuvi bilan bog'liqligi kuzatildi. Olingan natijalar diabetik nefropatiya rivojlanishida giperglikemiya va gemodinamik omillarning muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Olingan natijalar ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan mos kelib, diabetik nefropatiyaning rivojlanishi qandli diabet davomiyligi va metabolik nazorat darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Mikroalbuminuriyaning erta diagnostik belgi sifatida aniqlanishi kasallikni dastlabki bosqichlarda aniqlash imkonini beradi va buyrak yetishmovchiligi rivojlanishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Proteinuriya va glomerulyar filtratsiya tezligining pasayishi esa kasallikning progres sivi kechishini ifodalaydi. Arterial gipertenziyaning nefropatiya kechishiga salbiy ta'siri kompleks davolashda glyukemik nazorat bilan bir qatorda qon bosimini boshqarish zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, diabetik nefropatiyani samarali boshqarish erta tashxis, muntazam monitoring va individual profilaktik yondashuvlarni talab etadi.

### **Xulosa**

Diabetik nefropatiya qandli diabetning eng jiddiy surunkali asoratlardan biri bo'lib, buyrak glomerullari va mikrotsirkulyatsiya tizimining asta-sekin zararlanishi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari uzoq muddatli giperglikemiya, arterial gipertenziya va metabolik disbalans kasallik patogenezi va prognoziga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatdi. Mikroalbuminuriya va proteinuriya kasallikning dastlabki

bosqichida aniqlashda asosiy diagnostik belgi sifatida ahamiyatga ega. Glyukemik va arterial bosimni samarali nazorat qilish, muntazam klinik va laborator monitoring hamda individual davolash strategiyalarini qo‘llash diabetik nefropatiya rivojlanishini sekinlashtirish, buyrak funksiyasini saqlash va surunkali buyrak yetishmovchiligi xavfini kamaytirishda muhimdir. Shu bilan birga, diabetik nefropatiyani samarali boshqarish kompleks yondashuv, erta tashxis va profilaktik choralarning uyg‘unligini talab qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Forbes J.M., Cooper M.E. Mechanisms of diabetic complications. *Physiol Rev.* 2013;93(1):137–188.
2. Tuttle K.R., Bakris G.L., Bilous R.W. Diabetic kidney disease: a report from an ADA consensus conference. *Diabetes Care.* 2014;37(10):2864–2883.
3. American Diabetes Association. Microvascular complications and foot care: Standards of Medical Care in Diabetes—2025. *Diabetes Care.* 2025;48(Suppl. 1):S135–S153.
4. Ritz E., Rychlik I., Locatelli F. End-stage renal failure in type 2 diabetes: a medical catastrophe of worldwide dimensions. *Am J Kidney Dis.* 1999;34(5):795–808.
5. de Boer I.H., Rue T.C., Hall Y.N. Temporal trends in the prevalence of diabetic kidney disease in the United States. *JAMA.* 2011;305(24):2532–2539.